

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINI
TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13926279>

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi
Boltayeva Manzura Boyturayevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida bolalar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan mashg'ulotlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida innovatsion texnologiyalar o'rnini kengaytirish hamda bolalarni maktab ta'limiga davlat talablari darajasida tayyorlash haqida qabul qilingan qarorlar atrofida oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishish yo'lida hamjihatlik masalalari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, takomillashuv, harakat, innovatsion g'oyalar, innovatsion texnologiyalar, bolalar ijodkorligi, yangi jahon tajribalari, hamkorlik, hamjihatlik masalalari*

Annotation: In this article, our honorable president Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, in order to further improve the activities of preschool education organizations, based on the capabilities of children, expand the role of innovative technologies and state requirements for school education of children in order to more effectively organize the activities conducted in preschool education organizations. about the decisions made about the training at the level, we talk about the issues of solidarity in the way of achieving our goal.

Key words: *education, upbringing, improvement, action, innovative ideas, innovative technologies, children's creativity, new world experiences, cooperation, solidarity issues*

Аннотация: *В этой статье наш уважаемый президент Шавкат Миромонович Мирзиёев в целях дальнейшего совершенствования деятельности организаций дошкольного образования, исходя из возможностей детей, расширяет роль инновационных технологий и государственных требований к школьному образованию детей, чтобы более эффективно организовать мероприятия, проводимых в организациях дошкольного образования, о принятых решениях об обучении на уровне, говорим о вопросах солидарности на пути достижения нашей цели. idarity in the way of achieving our goal.*

Ключевые слова: *образование, воспитание, совершенствование, действие, инновационные идеи, инновационные технологии, детское творчество, новый мировой опыт, сотрудничество, вопросы солидарности.*

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hozirgi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasiga oid bir qancha qaror va farmonlar joriy etildi. Buning samarasi esa yaqin besh yil ichida bu sohani tubdan yangilash imkoniyatini bermoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodlarni sog'lom, barkamol va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya berish jarayonlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jahon tajribalaridan keng foydalanilmoqda. Samarali ta'lim va tarbiya berishda zamon talablaridan kelib chiqqan holda ota-onalar bilan hamkorlik masalalarida uyg'unlashib bugungi kunda yanada takomillashib bormoqda. Bu esa yangicha zamonaviy usullarini joriy etishga qaratilgan va ilg'or, zamon talablariga mos, innovatsion texnologiyalar bizning maktabgacha ta'lim tashkilotlarimizda olib borilayotgan faoliyatlarni yanada kengaytirmoqda. Bu borada jahon andozalariga mos ta'minlanayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'limga jalb qilish va bolalar qamrovini samarali ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini innovatsion va zamonaviy o'quv-metodik materiallar, maktabgacha ta'lim sohasiga oid qo'llanmalar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish, masalalarini eng dolzarb ekanligini inobatga olib bu sohada ham zaruriy shart –sharoitlarni yaratish va ularni takomillashtirib borish zarurligini ko'rsatmoqda.

Sir emaski so'nggi yillarda bu sohada nihoyatda katta o'zgarishlar sezilarli darajada kengaydi. Avvalo jahon tajribalarini o'rganish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari chet ellarda malaka oshirib, ularning texnologiyalarini o'rganib kelishmoqda. Bu esa albatta bu sohaning rivojlanishida katta hissa bo'lmoqda. O'qish jarayonlarida amaliyot mashg'ulotlari olib borilayotgan bir nechta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bilan tanishdik. Amaliyot jarayonlarida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktabgacha ta'limdan teng va maqsadli foydalanishi uchun barcha shart-sharoitlar bilan ta'minlanganligini, barcha imkoniyatlar mavjudligini, pedagog kadrlarning malakalari ancha yuqorilaganini, hatto zamon talablari darajasida innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlab borilayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Bu albatta bizni quvontiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu borada yanada yangiliklar yaratish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini zamon talablari darajasida takomillashtirish maqsadida 2019-yil 13-mayda Vazirlar Mahkamasining 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Zamonaviy o'qitish yo'llarini o'rganish maqsadida dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorlik qilish va ularning ta'lim tajribalaridan unumli foydalanish, jahon o'qitish metodikalarini o'z mentalitetimizga moslashtirib, ta'lim tarbiya jarayonlarida keng foydalanish maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida katta hissa qo'shdi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika asrida kundan kunga emas balki soat sayin yangiliklar jahon yuzini ko'rmoqda. Mana shunday yangiliklar davrida albatta aziz O'zbekistonimiz ham har sohada o'z o'rniga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun albatta xorij texnologiyalaridan andoza olish va bu andozalar asosida o'zimizning mentaletimizga moslashtirishimiz, milliyligimizni yo'qotmagan holda ta'lim tarbiya jarayonlarini sifatli va mazmunli tashkil etishimiz kerak. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni vaqtimizdan unumli foydalanishga, samarali tashkil etishga va hayotga o'z o'rnini topishga yoshlikdan harakat qilishni, har bir narsaning qadriga yetishga, va berilgan imkoniyatlarni besamar o'tkazmaslikka maktabgacha ta'lim tashkilotlaridayoq ko'nikmalar paydo qilish lozim. Muhtaram prezidentimizning sifatli ta'limga qaratayotgan e'tiborlari ham bunga yaqqol bir misoldir. Albatta sifatli ta'limning poydevori maktabgacha ta'limdan boshlanishi kerak. Buning uchun esa avvalo vaqtni to'g'ri taqsimlash, undan unumli foydalanish va albatta har bir ishda eng muhimi tartibni yo'lga qo'yish lozim. To'g'ri rejalashtirilgan har bir ish albatta unumli bo'ladi, va o'z samarasini ko'rsata oladi.

O'qish tajribalarida ko'p hollarda shuni kuzatamanki, ko'proq o'zlari istab emas nimagadir majburligidan yoshlarimiz qo'lga kitob olishardi. Ammo majburiy ya'ni hohlamasdan qilingan hech bir ishning samarasi ijobiy bo'lmaydi. Avvalo har bir inson o'z kasbini sevish va kerak bo'lsa unga jon fido qilishga tayyor bo'lmog'i lozim. Shundagiga prezidentimiz hohlagandek sifatli ta'limga erisha olamiz. To'g'ri o'z kasbini sevadigan haqiqiy bilimdonlar yurtimizda juda ko'p, faqat ular safini kengaytirish lozimdir. Ta'lim sohasida shunday texnologiyalarni ishlab chiqish kerakki, yoshlar hatto maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ham har bir ishni majburiy emas balki o'zlari hohlab, qiziqish bilan, ishtiyoq bilan bajarsin. Lekin har bir ishga hech qachon osonlik bilan erishib bo'lmasligini, har bir qo'lga kiritilayotgan yutuqlarning ortida mashaqqatli mehnat qilish zarurligini bilishlari kerakligini singdirib borish zarur. Har bir erishilayotgan yuqori natijalarning poydevorida albatta kuchli mehnat turganini his qilgan holda oldinga intilish, unga erishish uchun maqsadni to'g'ri tanlash, va insoniyatga berilgan imkoniyatlar nihoyatda kengligini farzandlarimizga bolalik chog'laridan singdirib borish lozim. Bu esa albatta maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan, unda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlardan boshlanadi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni o'ziga ishongan, shijoatli, o'z

yurtini sevadigan, bilimdon qilib tarbiyalash uchun avvalo o'z o'rnida ayniqsa zamonaviy innovatsion g'oyalar, zamonaviy texnologiyalarning ta'lim-tarbiya sohasiga kirib kelishi va undan samarali foydalanish ta'lim jarayonlariga mazmun bag'ishladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarining asosiy faoliyati o'yin bo'lganligi va ta'lim jarayonlari o'yin shaklida tashkil etilishi va ularning rang barangligiga va qiziqarli metodikalardan foydalanishga e'tibor qaratilgani va ta'lim jarayonlarining osonroq o'zlashtirilishiga, bolalarda zerikish, toliqish yoki majburlik hissining paydo bo'lishiga sabab qoldirmaydi. Rivojlanayotgan shunday bir zamonda yashayapmizki, bu davrda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaslikni, innovatsion g'oyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etmaslikni, ta'lim-tarbiya jarayonlariga be'tiborlik, xurmatsizlik deb tushunish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatlari imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bu sohada deyarli har kuni yangi-yangi g'oyalar, yangi metodikalar ishlab chiqilmoqda va bu tashkilotlar o'rtasida keng targ'ib etilib, ta'lim jarayonlariga o'z hissasini qo'shmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlik do'stlik va hamjihatlik an'alarini davom ettirmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-mayda "Maktabgacha talim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Qarorning birinchi nizomi "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatlari haqida" bo'lib, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga va Nizomiga va o'z ustaviga muvofiq amalga oshiradi.

Qarorda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarda quydagilarni shakllantirish lozimligi belgilab qo'yilgan:

- Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;

- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

- bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish masalalari bajarilishi shart bo'lgan vazifalar qatorida belgilab qo'yilgan.

Bundan kelib chiqadiki, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish va buning uchun jahon talabalariga mos ravishda o'z qadriyatlarimizni unutmagan holda o'qitish bilan bog'liq barcha shart –sharoitlarni tubdan takomillashtirib kelajak avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan va kuchli salohiyat egasi qilib tarbiyalash albatta maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'sag'asidan boshlanishi zarur. Chunki har qanday qurilayotgan inshootlarning poydevori mustahkam bo'lsagina u uzoq yillar insoniyatga xizmat qila oladi. Demak maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham ta'lim sohasidagi poydevor vazifasini o'taydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatlaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bunday natijalarning qo'lga kiritish albatta bizdek bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilaridan juda katta mas'uliyat va mehnatni talab etadi. Kelajak avlodlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni milliy g'urur hissi bilan tarbiyalash, shu bilan birga zamonaviy texnologiyalar, innovatsion g'oyalar bilan bog'liq holda ta'lim jarayonlarini tashkil etish zarurdir. Jumladan shuni ham ta'kidlash lozimki, 2019-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovichning "Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish to'g'risidagi qaror" ning 4-moddasida Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari qayd etilgan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;
- har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;
- bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;
- ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligi.

Bu qarordan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining bolalar hayotidagi o'rni nihoyatda beqiyos. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligini ta'minlash va ta'lim jarayonlarini shaffofligi va ochiqligini amalda ko'rsatish bu albatta tarbiyachilardan katta bilim tajribasini talab qiladi. Shu maqsadda bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi pedagoglar saviyasini yanada oshirish, bilim darajalarini yuqori bo'lishlari va ta'lim jarayonida xato-kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida katta imkoniyatlar yaratildi.

Barcha xodimlarni malakasini oshirish va oliy ma'lumotli bo'lishlarini ta'minlash choralari ko'rildi va bu masala bosqichma boshqich amalda o'z isbotini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'rida" 2019-yil 14-dekabr

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada ytakomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida" gi 2019 yil 13 maydagi 391-son qarori

3. T.N.Toshtemirona "Maktabgachata'lim-tarbiyani tashkil etish" o'quv qo'llanma Kamolot nashriyoti. Buxoro 2022-yil.